

## **KOLLABORATIV TEXNALOGIYALAR ASOSIDA SARF (MORFOLOGIYA) ILMINI O‘QITISH USULLARI**

**Eschanov Usman Qutlimuratovich**  
*Ajinyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti 1-kurs doktoranti*

***Abstarct.** Ushbu maqolada arab tilidagi sarf (morfologiya) ilmini kollaborativ texnologiyalar asosida tashkil qilish borasida fikr yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** sarf ilmi, morfologiya, kollaborativ texnologiyalar*

Arab tilining O‘zbekiston madaniyati tarixida tutgan o‘rni beqiyosdir. O‘n uch asr davomida diyorimiz tarixi arab tili va yozuvi bilan bog‘liq bo‘lib kelgan va bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Arab tilini o‘rganish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda ta‘lim faoliyatining asosiy shakllari sifatida turli usullar qo‘llaniladi: materialni tushuntirish, so‘rovnoma, mashqlar, suhbat, munozara va boshqalar.

Sarf ilmi yurtimizda juda uzoq yillardan beri o‘qitib kelinadi. Malumki, o‘rta asrlarda yurtimizda ta‘lim jarayoni qat‘iy an‘analarga asoslangan bo‘lib bu an‘analar asrlar mobaynida sahkllangan.

Sarf ilmi ham mana shunday asrlar mobaynida an‘analarga sodiq qolgan holda o‘qitiladigan ilmlardan biri bo‘lib kelgan. Sarf ilmi hozirda ham yurtimizdagi islom bilim yurtlarida muhim fanlardan biri bo‘lib keladi.

Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, o‘tmishda madrasa talabalari arab tilini o‘zlashtirishda asosan XII-XIII asrlarda yaratilgan darsliklardan foydalanganlar. Undan keyingi yozilgan qo‘llanmalar esa asosiy darsliklarga sharh vazifasini o‘tab kelgan.

Madrasalarda sarf ilmi quyidagi darslik-kitoblar orqali o‘qitilgan:  
- «Bidon» – ushbu kitob forscha «bidon – bilgin-ki», degan so‘z bilan boshlanadi. Unda arab tili morfologiyasi fors-tojik tilida sharhlanadi.  
- «Mu‘ziy» – fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, arab tilidagi fe‘l boblari va ularning tuslanishiga bag‘ishlangan.

- «Zanjoniyy» – fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, arab tili morfologiyasining davomi hisoblanadi. Kitobning asl nomi «al-Mabadi’ fi-t-tasrif» bo‘lib, uning muallifi Iziddin Abul Fazoil Zanjoniyy. O‘tmishda asosiy darsliklari "Bidon", "Mu‘ziy" va "Zanjoniyy" bo‘lgan bo‘lsa. Bugungi kunda asosiy sarf darslik mustaqillik yillarida yozilgan Do‘stmuhammad Bodariyning "Mukammal sarf" darsligi, I. Ahrorovming "Taysiyr us sarf" kitobi, Rahmatulloh Rasuljon o‘g‘lining "Janihut tolib" kitoblari hisoblanadi.

Ushbu kitoblarning asosiy uslubi masdardan yasalgan 12 ta mushtoqqotlar (yasama so‘zlar) va ularning sarflanishi (tuslanish va turlanishini) o‘rganishga qaratilgan. Odatda talabalar masdardan yasalgan 12ta mushtoqqotlar va ularning siyg‘alarini (shakllarini) yodlashadi. Va ushbu siyg‘alarda yuz berayotgan sarf qoidalarini izohlab berish orqali o‘zlashtirishadi. Bu jarayon o‘quvchidan ham, o‘qituvchidan ham juda ko‘p vaqt va kuch sarflashni talab qiladi. Ya’ni o‘quvchi o‘rgangan mavzusini o‘qituvchiga topshirishi kerak, har darsda har bir o‘quvchining darslarini qabul qilishi o‘qituvchidan ko‘p vaqt talab etadi. Darsning asosiy qismi o‘tilgan mavzuni qabul qilib olishga sarflanadi.

Bu jarayonni soddalashtirish va yengillashtirish uchun kollaborativ o‘qitish texnologiyalarini joriy qilish juda qo‘l keladi.

Kollaborativ o‘qitish texnologiyalarining kichik guruhlarda ishlash usuli sarf ilmini o‘rganish uchun juda qulay bo‘lib o‘qituvchiga ham o‘quvchiga ham yengllik yaratadi.

Bugungi kunda yurtimizdagi islom bilim yurtlarida har guruhda o‘rtacha 15 talab o‘qidi. Demak, talabalar 5tadan uchta kichik guruhlariga ajratiladi va o‘qituvchi har bir guruh uchuno‘tgan darsda o‘tilgan mavzuga asosan vazifa topshirig‘i beradi. Masalan, birinchi bobning noqis fe‘llarining mushtoqqotlari, ularning sarflanishi va ularda yuz berayotgan e‘lol qoidalarini ayting. Talabalar kichik guruhlarda o‘zaro bir-birlari bilan kalimaning mushtoqqotlari, sarflanishi va ularda yuz berayotgan qoidalarini aytib beradi va o‘qituvchi tomonidan berilgan shu mavzuga aloqador mashqlar va topshiriqlar bajariladi.

O‘qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. O‘quvchilarning kichik guruhlardagi o‘quv faoliyati o‘yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin. Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi – o‘quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o‘qish o‘rganishdir. Hamkorlikda o‘qitish har bir o‘quvchini kundalik qizg‘in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o‘quvchida shaxsiy qadr qimmat tuyg‘usini vujudga keltirish, o‘z kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas’uliyat hissini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi har bir o‘quvchining tahlil olishdagi muvafaqqiyati guruh muvafaqqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o‘quv topshiriqlarini to‘liq va sifatli bajarishga o‘quvmaterialini puxta o‘zlashtirishga, o‘rtoqlariga hamkor bo‘lib, o‘zaro yordam ubshtirishga zamin tayyorlaydi.



Shaxsning kollaborativ o‘quv muhitiga kirishi o‘quvchining insoniy munosabatlarga kirisha olish xususiyatini rivojlantirishga, amaliy, ilmiy va nazariy faoliyat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga, muayyan ijtimoiy normalar va funksiyalarni shakllantirishga faol jalb qilishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchi jamiyatda o‘zini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallaydi, jamoa a‘zolari bilan faol munosabatda bo‘ladi, kelajakda turli xil ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini qanday tutishni, muloqot qilishni o‘rganadi. Hamkorlik muhiti ijodiy salohiyatga ega bo‘lib, o‘quvchi shaxsiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Bunday muhitda o‘quvchi o‘zini jamoa faoliyat sub’ekti, ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida his qiladi, o‘z ahamiyatini va shaxsiy qadriyatini tushunadi.

Kollaboratsiya - ikki yoki undan ortiq kishining umumiy maqsadlarga erishish uchun har qanday sohada birgalikdagi faoliyati bo‘lib, bunda bilim almashish, o‘rganish va kelishuvga erishish (konsensus) amalga oshiriladi

Kollaboratsiya-

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
- o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o‘quvchilar tomonidan o‘quv predmetlari bo‘yicha egallagan ko‘nikma, bilim va malakalarini amaliyotga tatbiq eta olishini ta’minlashi;
- o‘quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi;
- o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari, qobiliyatlarini namoyish qilishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi lozim.

Hamkorlikda o‘qitish samaradorligini ta’minlovchi omillar: o‘quvchilarning dars mazmuniga ijodiy yondashuvi, dars jarayonidagi axborotlarni tahlil va tanqid qilish, o‘z xulosalarini asoslash, bilimlarni yangi vaziyatlarda ijodiy qo‘llash, amaliy topshiriqlar bajarish uchun vaqtni ko‘proq ajratish, hamkorlikda o‘qiyotgan o‘quvchilarning bir-biriga muvaffaqiyatga erishishlari uchun ko‘maklashuvi va boshqalar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dilova N.G‘. (2017). O‘quvchi shaxsini rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasining o‘rni. Zamonaviy ta’lim. 1-son.
2. Sh. Shodmonova, N.S. Mirsagatova, G.N. Ibragimova, M.T. Mirsoliyeva. Pedagogik texnologiyalar. Metodik kullanna T.: “Fan va texnologiyalar”, 2011.
3. L.V. Golish, D.M. Fayzullayeva. Pedagogik texnologiyalarni loyixalashtirish va rejalashtirish. -T. 2010 y.
4. G.Solijonova O‘rta asrlarda O‘rta Osiyo madrasalari o‘quv dasturi haqida / O‘zbekiston tarixi. –Toshkent, 2000. –№ 3. –B. 27-28.